

OLIV TA'LIMDA MODIFIKATSION YONDASHUV

Mirzakulova Nodira Ibragimovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda modifikatsion yondashuv mazmuni va modifikatsiya tushunchasining asosida faylasuf Spinozaning mashhur substansiyasi, modifikatsiya ob'ekt, mezon, jarayon, obrazni xususiyatlariga o'zgarishi, modifikatsion yondashuv o'quv dasturining mazmunini o'zgartirishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, modifikatsiya, modifikatsion yondashuv, ob'ekt, mezon, jarayon, obraz, o'zgarish, o'quv dasturi, faoliyat, qobiliyat, o'zgartirishlar kiritish, sifatini yaxshilash.

МОДИФИКАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Мирзакулова Нодира Ибрагимовна

Базовый докторант Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье на основе содержания модификационного подхода в высшем образовании и концепции модификации известное содержание философа Спинозы, модификация объекта, критерия, процесса, характеристик образа, а также модификационный подход изменяет содержание учебной программы.

Ключевые слова: высшее образование, модификация, модификационный подход, объект, критерий, процесс, образ, изменение, учебная программа, деятельность, способность, модификация, улучшение качества.

MODIFICATION APPROACH IN HIGHER EDUCATION

Mirzakulova Nodira Ibragimovna

Basic doctoral student at Bukhara State pedagogical institute

Abstract: In this article, based on the content of the modification approach in higher education and the concept of modification, the well-known content of the philosopher Spinoza, modification of the object,

criterion, process, image characteristics, as well as the modification approach changes the content of the curriculum.

Key words: *higher education, modification, modification approach, object, criterion, process, image, change, curriculum, activity, ability, modification, quality improvement.*

Hozirgi davrda oliy ta'limni isloh qilishda turli samarali yondashuvlar qo'llanilmoqda. Biz ushbu maqolada ta'limda modifikatsion yondashuv haqida fikr yuritdik.

Ilmiy asarlar va lug'atlar keltirilishicha "Modifikatsiya" lotincha "modus" so'zi bo'lib, o'lchov, mezon, ko'rinish, obraz, yo'l, degan ma'nolarni bildiradi. Ya'ni ob'ekt yoki predmetning muayyan holatidagi xususiyatini ifodalaydi.

Modifikatsiya tushunchasining asosida faylasuf Spinozaning mashhur substansiya va modus haqidagi quyidagi umumfalsafiy qarashlari yotadi. "modus"– substansiyaning barcha o'tkinchi (ko'chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uning borligi o'ziga emas, substansiya va uning xossasiga bog'liq. Modusda o'zining paydo bo'lishini yagona, abadiy, chegarasiz moddiy substansiyada topadigan narsalarning abadiy ko'payuvchanligi va ko'chuvchanlik sifati aks etadi. Demak, "modus" o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Bu esa o'z navbatida moddiy va ma'naviy jarayonlardagi doimiy o'zgarishlar natijasida yangi modellarning paydo bo'lishini taxmin etadi. Modifikatsiya hodisasi o'z-o'zidan adabiy-badiiy va tarixiy jarayonlarda ham aks etadi. Butun holatda mavjud bo'lgan janrlardan, masalan, xalq qahramonlik eposidan boshqa epik janrlarning shakllanishi, o'zgargan shaklda qayta tug'ilishi qator tadqiqotlarda qayd etilgan. Demak modifikatsiya tushunchasi ob'ekt, mezon, jarayon, obrazni xususiyatlariga o'zgarishidir. Modifikatsion yondashuv esa ob'ekt, mezon, jarayon, obrazni xususiyatlariga o'zgartirish kiritish orqali yangi sifat darajasiga ko'ratishdir.

Oliy ta'limda modifikatsion yondashuv- o'quv rejasi, o'quv dasturlariga, ta'lim mazmuniga, metodikasi va baholash tizimiga kiritilgan o'zgarishlardir.

Oliy ta'limda modifikatsion yondashuv turli elementlar, qismlar doirasida yoki butun sistemani yaxlitligida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limdagi keng tarqalgan mavzu - bu muhit va modifikatsiyadir. Ikkalasining bir biridan farqi nimada? Muhit va o'zgartirishlar talabalarning muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berish uchun mo'ljallangan ta'limdagi turli xil yondashuvlardir. Ko'pgina o'qituvchilar atamalarni bir-birining o'rniga ishlatishadi, chunki ikkalasi ham talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. Ammo bular turli tushunchalardir. Bu farqni o'qituvchilar

tushunishlari va ularning har biri qachon amalga oshirilishi kerakligini bilishlari muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan barcha talabalar o'qish davomida muhit o'zgartirishlarni talab qilishi mumkin. Yoki o'quv jarayonida muammoga duch kelgan talabalar ta'lim olishlari muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun muhit o'zgartirishlar talab qilishi mumkin. Ya'ni qulay ta'limiy shart-sharoit yaratish uchun muhit o'zgartirilishi kerak bo'ladi. Modifikatsiya esa ta'lim sifatini yaxshilash uchun ta'lim jarayoni va mazmuniga o'zgartirish kiritishni talab qiladi. Ya'ni talaba o'rganishi kerak bo'lgan ta'lim mazmuni yoki o'quv dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar. Muhit yoki modifikatsiyani amalga oshirish OTM rahbariyati, jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan hal qilinadi.

Modifikatsiya muhitdan ko'ra jiddiyroqdir, chunki modifikatsion yondashuv o'quv dasturining mazmunini o'zgartiradi. Shuningdek imtiyozli o'zgartirishlar amalga oshirilishi mumkin. Masalan guruhdagi o'rtacha va og'ir nogironligi bo'lgan talabalar uchun o'zgartirishlar qilinadi. Agar dars jadvali bo'yicha guruhda o'qiyotgan nogiron talaba majburiy fanlarda darsida qatnashgan bo'lsa va o'zining tengdoshlari bir xil darajadagi uy vazifasini bajarish imkoni bo'lmasa unda dars mashg'ulotiga o'zgartirish kiritiladi. Ular uchun alohida topshiriqlar va bajarish uchun ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Demak, oliy ta'limdan modifikatsion yondashuv qo'llanilsa ta'lim sifatini yanada oshirish imkoni bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Словарь русского языка: В 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований; Под ред. А. П. Евгеньевой. — 4-е изд., стер. — М.: Рус. яз.; Полиграфресурсы, 1999; (электронная версия): [Фундаментальная электронная библиотека](#).

2. Ellen Moore. Что такое модификация в образовании. 2023г. <https://ru1.wvpt4learning.org/what-is-modification-in-education-12458>

3. Mirzaqulova N. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish shakllarini modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish // MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS: a collection of scientific works of the International scientific conference (31st May, 2023) – England, London: "CESS", 2023. Part 1

4. Sh.Sh.Olimov, B.T. Juraev. Malakaviy amaliyot. Metodik qo'llanma. – B.: Buxoro davlat universiteti, 2021. - 41 b

5. Мадина Бурановна Ақобирова, Нодир Уткирович Зиедуллоев, [Методы изготовления лекал одежды](#). WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS, 2018. С-51-53

6. Мадина Бурановна Ақобирова, Мехринисо Ахророва, [ВИДЫ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИБАВОК И ПРИПУСКОВ В ОДЕЖДЕ](#) WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS, 2018. С-47-50

7. Сайфуллаева Д., Муминова Д. Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин//International conference on science and education. Scopus. Turkey.-2021. В.72-74

8. Sayfullayeva D., Mo'minova D. DIDACTICAL PRINCIPLES OF LABOR EDUCATION//Academicia Globe: Inderscience Research journal.2021. Noyabr.В-1-7